



«TASDIQLAYMAN»  
Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti

rektori

R.I.Xalmuradov

«» sentabr 2023 yil

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektorining  
NIZOMI**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektorining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektori o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyruqlari va topshiriqlariga, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasining ko‘rsatma va topshiriqlariga, universitet rahbariyati buyruqlari, topshiriqlari va ushbu Nizomga amal qiladi.

3. talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektori Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining rahbariga hamda Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorekторiga bo‘ysunadi, vazirlikning Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limiga hisobdor hisoblanadi.

4. talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektori o‘z faoliyatini Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorekтор, Ilmiytadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadriar tayyorlash bo‘limi, Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi va boshqa bo‘limlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

**II. Talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektorining maqsad va vazifalari**

5. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari va faoliyatini tashkil etishva rivojlantirishdan ko‘zlangan maqsad:

- 5.1. Tegishli fan sohałari bo‘yicha talabalarning bilimini oshirish;
- 5.2. Talabalarining ilmiy qobiliyati va ijod erkinligini oshirish, shuningdek ularda o‘quv jarayoni va kelajakda amalga oshiradigan amaliy faoliyatida tashabbuskorlik hissini shakllantirish va rivojlantirish;
- 5.3. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish yo‘li bilan o‘z mutaxassisligiga bo‘lgan ijodiy yondashuvini shakllantirish, bo‘lajak

mutaxassislarining shaxsiy professional xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashish.

## **6. Talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektorining asosiy vazifalari:**

- 6.1. Universitetdagi iqtidorli va tashabbuskor yoshlar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish hamda ularni mamlakatning yetakchi olimlari va ishbilarmonlari bilan hamkorligini ta'minlash;
- 6.2. Iqtidorli talabalarni intellektual salohiyatini aniqlab borish;
- 6.3. Iqtidorli talabalarni qobiliyati va qanday yo'nalishga moyilligiga qarab maqsadli tayyorlashni tashkiň etish;
- 6.4. Innovatsion loyihamalarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, ilmiy-innovatsion akselerator va biznes-inkubatorlarni tashkil etish asosida tashabbuskor yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish;
- 6.5. Iqtidorli yoshlarni rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlari, universitetlari, texnoparklari va ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishlariga ko'maklashish;
- 6.6. Universitetda tegishli soha yo'nalishlari bo'yicha yangi avlod ilm-fan jamoalari va maktablarini shakllantirish;
- 6.7. Ilm-fan sohasida o'z o'rmini topib borayotgan, kelajakda mamlikat ilm-fani nufuziga o'z hissasini qo'sha oladigan bo'lajak akademiklar jamoalarini shakllantirib borish;
- 6.8. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishning turli usullari, yo'nalishlari va ko'nikmalarining o'zlashtirishlariga sharoit yaratish;
- 6.9. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatida ishtirok etishi orqali o'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirishiga ko'maklashish va ularning ushbu jarayonga ijodiy yondashuvini kuchaytirish;
- 6.10. Iqtidorli talabalarni Respublika va xalqaro fan olimpiadalarida, davlat stipendiyalari hamda davlat mukofotlari tanlovlariда faol ishtirokini ta'minlash;
- 6.11. Talabalarning ilmiy muammolarni mustaqil hal qilish usullarini o'rganishi va ularning ilmiy jamoalarda ishlash qobiliyatini shakllantirish;
- 6.12. Talabalarni universitetda bajariladigan ilmiy tadqiqot loyihamalariga keng jalb qilish;
- 6.13. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichlariga qobiliyatli yoshlarni tanlash bo'yicha ishlarni tashkil etishda sifat va samaraga erishishga ko'maklashish.
- 6.14. Iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy to'garaklarini tashkil etish va ilmiy-ijodiy izlanishlarga tegishli shart-sharoit yaratib berish;
- 6.15. Yoshlar akademiyasi liderlari saylovini Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi hamkorligida tashkil etish va ular faoliyat olib borishiga ko'mak berish;
- 6.16. Talabalarni ta'lim yo'nalishiga mos startap loyihasini hamda ratsionalizatorlik g'oyasini bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilishga keng jalb qilish;
- 6.17. Iqtidorli talabalarning ilmiy faoliyati natijalari, erishgan yutuqlari va amalga oshirgan ishlari yuzasidan OAV, universitet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish;

7. Yuqorida keltirilgan vazifalarni samarali amalga oshirishga universitetda faoliyat yuritayotgan barcha prorektorlar, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari mas'ul hisoblanadi.

8. Iqtidorli talabalar bilan ishslashni tashkil etish va ularni maqsadli tayyorlash yuzasidan talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektorida quyidagi ish yuritish hujjatlarini olib borish tavsiya etiladi:

- Iqtidorli talabalar bilan ishslash Nizomi;
- Iqtidorli talabalar bilan ishslash ish rejasi (dasturi);
- Ish rejasi (dastur)ning bajarilishi to‘g‘risida hisobotlar;
- Yoshlar akademiyasi tomonidan belgilab berilgan chora-tadbirlar hamdategishli yo‘nalishlar bo‘yicha dasturlar;
- Iqtidorli talabalarga oid oliv o‘quv yurti rahbarlarining buyruqlari;
- Konferensiya, olimpiada, tanlovlardan o‘tkazilishiga oid hujjatlar;
- O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti nomidagi Davlat stipendiyasi va nomli Davlat stipendiyalariga oid hujjatlar;
- Iqtidorli talabalarni izlash va ularni maqsadli tayyorlash to‘g‘risidagi yuqori boshqaruv organlarining qarorlari va buyruqlari;
- Iqtidorli talabalar qatnashadigan to‘garaklarning dasturlari, ish rejalar;
- Iqtidorli talabalar va ularning ilmiy rahbarlari haqida ma’lumotlar;
- Yoshlar akademiyasi liderlarining faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlar.

### **III. Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari va faoliyatinitashkil etish va boshqarish**

9. Universitetdagi talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari va faoliyatini tashkil etish va boshqarish Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor zimmasiga yuklanadi. Talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatga keng jalb qilish hamda qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektori olib boradi. Mazkur tuzilmadagi ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va boshqarish, ularning samaradorligiga mazkur tuzilma mas’ul xodimlari javobgar hisoblanadi. Ushbu tuzilmaning har biri o‘zining funksional vazifalaridan kelib chiqqan holda talabalar ilmiy faoliyatini amalgaoshirish ishlarida ishtirok etadi.

10. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish ularning universitet doirasida, respublika va xalqaro miqyosida amalga oshiriladigan ilmiy seminarlar, konferensiylar, davra suhbatlari, olimpiadalar, tanlovlarda ishtirok etishini ta’minlashni nazarda tutadi.

11. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini va faoliyatini bevosita ro‘yobga chiqaradigan asosiy bo‘g‘in kafedra hisoblanadi. Kafedraning professor-o‘qituvchilari talabalar tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolatarni ko‘rib chiqadi va chop etish uchun tavsiya etadi.

12. Kafedralar universitet ilmiy yo‘nalishdagi faoliyatni rivojlantirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari va faoliyati bilan shug‘ullanuvchi har bir talabaning ilmiy sohada o‘z qobiliyatini ko‘rsatishiga imkoniyat yaratadi.

13. Kafedralar qoshidagi ilmiy to‘garaklar talabalarni mazkur nizomda

belgilangan maqsadlarga erishish hamda tegishli fanlar bo'yicha olimpiadalar va turli xil tanlovlarda ishtirok etishi uchun tayyorlaydi.

14. Kafedrada amalga oshirilayotgan talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariiga va faoliyatiga oid ko'rsatkichlar kafedra va uning professor-o'qituvchilari faoliyatiga baho berishda inobatga olinadi. Mazkur ko'rsatkichlar kafedralarning hisobotlarida aks ettiriladi.

#### **IV. Talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektori boshlig'i va xodimlarining huquqlari vamajburiyatları**

15. talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektori boshlig'i va xodimlarining quyidagi huquq va majburiyatga ega:

15.1. Tasdiqlangan reja asosida iqtidorli talabalar bilan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish.

15.2. Iqtidorli talabalarni aniqlash ularni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda nomli stipendiyalar va turli xil tanlovlarda ishtirok etishga tayyorlash bilan bog'liq bo'lган tadbirlarni tashkil etish.

15.3. Talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishga yo'llash va ular tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarilishini muvofiqlashtirish.

15.4. Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish masalalari yuzasidan fakultet dekanlari va kafedra mudirlari tomonidan bajarilgan ishlarni tahlil qilish va tavsiyalar berish;

15.5. Professor-o'qituvchilarining yillik o'quv yuklamalaridagi "ilmiy-tadqiqot ishlari" sohasiga tegishli bandda iqtidorli talabalar bilan ishlashga tavsiyalar berish.

15.6. Har semestr yakunida fakultetlar va kafedralarning iqtidorli talabalar bilan mas'ul shaxslarning olib borgan ishlari yuzasidan bo'limga hisobot berishlarni ta'minlash.

15.7. Iqtidorli talabalarning respublika va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan seminar, ko'rgazma va ilmiy anjumanlarda ishtirok etishlariga tayyorlash.

15.8. Talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektorining o'quv yili ish rejasini ishlab chiqish va tasdiqqa kiritish.

15.9. Talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektoriga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, uni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishgayo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish;

15.10. O'z vakolati doirasida, bo'limning barcha xodimi, talabalar uchun majburiy bo'lган farmoyish, yo'riqnomalarini ishlab chiqarish.

15.11. Universitet rahbariyatiga va kengashiga talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektori faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish.

15.12. Bo'lim boshlig'i Iqtidorli talabalarda ijodiy va ilmiy muhitni yaratish uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi.

15.13. Universitet kengashi majlislarida, fakultet va kafedralarda talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektori manfaatlarini o'z vakolati doirasida himoya qilish va amalga oshirish.

## **V. Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyaviyva moddiy-texnik jihatdan ta'minlash**

16. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar va tanlovlар universitet mablag'lari, shuningdek, homiylik mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.
17. Universitet tomonidan talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektoriga alohida xona, ish stoli va stullar, javonlar, kompyuterlar jamlanmasi, printer, proyektor, ekran, raqamli fotoapparat hamda zaruriy devonxona mahsulotlari bilan ta'minlanadi.
18. Talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish sektorida faoliyat yurituvchi xodimlar ularni faoliyatini natijadorligi va samaradorligini inobatga olib holda ular universitet mablag'lari hisobidan rag'batlantirib boriladi.

## **VI. Yakuniy qoida**

19. Mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish rektor buyrug'iiga asosan amalga oshiriladi.
20. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.